Dastlabki ma’lumotlar

# 2024- yilning yanvar - sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 31190,8 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 30785,4 mlrd. so‘mni (104,3 %), o‘rmon xo‘jaligi – 360,6 mlrd. so‘mni (102,6 %), baliqchilik xo‘jaligi – 44,8 mlrd. so‘mni (59,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.




31190,8 — Qashqadaryo viloyati bo‘yicha

01 — 30785,4 — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — 360,6 — O‘rmon xo‘jaligi

03 — 44,8 — Baliqchilik

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2024- yilning yanvar - sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 104,3 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar,102,6 % i - o‘rmon xo‘jaligi, 59,4 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2024- yilning yanvar- sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (3136,9 mlrd. so‘m), Koson (2906,6 mlrd. so‘m), Qamashi (2606,9 mlrd. so‘m), Kasbi (2590,7 mlrd. so‘m), Yakkabog‘ (2519,5 mlrd. so‘m), Qarshi (2256,3 mlrd.

so‘m), Chiroqchi (2219,9 mlrd. so‘m), Nishon (2143,2 mlrd. so‘m) va Shahrisabz (2109,1 mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Dehqonobod tumanini (1193,2 mlrd. so‘m) Shahrisabz shahri (215,6 mlrd. so‘m) va Qarshi shahri (244,0 mlrd. so‘m)ni, keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,2 %) yuqori o‘sish sur’atlari Shahrisabz shahri (115,4 %), Mirishkor (108,8 %), Chiroqchi (108,5 %), Kitob (106,2 %), Qarshi (106,1 %), Yakkabog‘ (104,6 %), aksincha viloyat ko‘rsatkichidan past o‘sish sur’atlari Qamashi (100,2 %), G‘uzor (101,2 %), tumanlarida va Qarshi shahrida (101,7 %), kuzatildi

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati



# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 30409,1 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 12106,4 mlrd. so‘mni (105,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 18302,7 mlrd. so‘mni (103,5 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,2 % i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 27,0 % i - fermer xo‘jaliklariga, 3,8 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

# Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumanida (39,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Dehqonobod tumanida (92,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (13,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (1,0 %),dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (49,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Dehqonobod tumanida (0,6 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 12106,4 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,8 % ni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming tonna**




**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 821,6 ming tonna don (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 5,9 % ga ko'p ) yetishtirildi. Don yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 10,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi






2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 154,8 ming tonna kartoshka (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 1,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 77,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 434,6 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 6,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 7204 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz












2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 205,8 ming tonna poliz (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 11,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 38,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar












2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 161,2 ming tonna mevalar (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 5,3 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 41,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo'yicha mevalar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 82,9 ming tonna uzum (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 10,0 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 40,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



# Chorvachilik



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 18302,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,2 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 241,7 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p), 974,7 ming tonna sut (4,4 % ga ko‘p),
419,2 mln.dona tuxum (0,5 % ga ko‘p), 188,0 ming dona qorako‘l teri (4,2 % ga ko‘p ) yetishtirildi va 1918,0 tonna baliq (42,5 % ga kam) ovlandi.

## Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 241,7 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 94,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

### Hajmi, ming t.




### O‘sish sur’ati




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 974,7 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 95,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln.dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 419,2 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 0,5 % ga ko‘p yetishtirildi.Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 63,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1918,0 tonna (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 42,5 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 52,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning yanvar - sentabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 9,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 79,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 10,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 64,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 25,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 777,7 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 44,9 ming boshga (2,6 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soningin xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 578,1 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 12,8 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 5068,2 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 116,3 mingtaga (2,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soninining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 84,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 36,8 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni - 1138 boshga (3,2 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 79,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6820,8 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni - 211,8 ming boshga (3,2 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 64,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
• (75)-221-34-46